

PEDAGOGIK JAMOADA PSIXOLOGIK MUHIT VA UNING SAMARADORLIKKA TA'SIRI

Po'latova Muniraxon Akramovana

*Farg'ona viloyati Buvayda tumani MMTBga qarashli
5-umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada pedagogik jamoada psixologik muhitning mazmuni, uning shakllanish omillari hamda ta'lim samaradorligiga ta'siri tahlil qilingan. Psixologik muhit o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, hamkorlik, ishonch va emotsional qo'llab-quvvatlash darajasi bilan belgilanadi. Maqolada ijobiy psixologik muhitni shakllantirishning pedagogik va psixologik yo'llari yoritilgan.

Kalit so'zlar: pedagogik jamoa, psixologik muhit, hamkorlik, emotsional iqlim, motivatsiya, stress, kommunikatsiya, ta'lim sifati, ijtimoiy-psixologik iqlim.

KIRISH

Pedagogik jamoa — bu ta'lim muassasasida faoliyat yurituvchi o'qituvchilar, ma'muriyat va psixologlardan iborat ijtimoiy guruh bo'lib, ularning o'zaro munosabatlari ta'lim jarayonining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jamoada shakllangan psixologik muhit o'qituvchilarning ishga bo'lgan munosabati, motivatsiyasi va kasbiy faolligini belgilaydi. Ijobiy psixologik muhit deganda jamoa a'zolari o'rtasidagi ishonch, o'zaro hurmat, ochiq muloqot va hamkorlik tushuniladi. Bunday muhitda o'qituvchilar o'z fikrini erkin bildiradi, muammolarni birgalikda hal qiladi va bir-birini qo'llab-quvvatlaydi. Natijada jamoaviy ish samaradorligi oshadi.

Salbiy psixologik muhit esa nizolar, kommunikatsiya muammolari, raqobatning noto'g'ri shakllari va emotsional zo'riqishlar bilan tavsiflanadi. Bunday holat o'qituvchilarda stress, charchoq va motivatsiyaning pasayishiga olib keladi, bu esa bevosita ta'lim sifatiga salbiy ta'sir qiladi. Psixologik muhitning shakllanishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, rahbarning boshqaruv uslubi, jamoa ichidagi kommunikatsiya madaniyati, mehnat sharoitlari hamda o'qituvchilarning shaxsiy psixologik xususiyatlari muhim rol o'ynaydi. Demokratik boshqaruv uslubi ijobiy muhitni shakllantirishda eng samarali hisoblanadi. Pedagogik jamoada ijobiy psixologik muhit ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. O'qituvchilar o'z ishiga mas'uliyat bilan yondashadi, innovatsion metodlarni qo'llashga intiladi va o'qituvchilarga sifatli ta'lim berishga harakat qiladi. Bundan tashqari, jamoada ijodiy yondashuv va yangiliklarga ochiqlik kuchayadi.

Maktab psixologi ham jamoada sog'lom psixologik muhitni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. U nizolarni hal qilish, stressni kamaytirish, psixologik treninglar

o'tkazish va jamoa a'zolari o'rtasida ijobiy muloqotni rivojlantirish bilan shug'ullanadi. Shuningdek, muntazam seminarlar, jamoaviy treninglar va norasmiy uchrashuvlar pedagogik jamoaning emotsional yaqinligini oshiradi. Bu esa o'zaro ishonch va hamkorlikni mustahkamlaydi.

Jamoaning birligi, uni a'zolarining do'stona birlashishi- ichki munosabatlarda ayrim tarbiyalanuvchilarni tanqid qilish va jazolash mumkin, lekin ta'sir ko'rsatishning maxsus shakllaridan tashqarida har bir tarbiyalanuvchiga tegishli baho berish, uni begonalar oldida himoya qilish, unga hech qanday ozor yetkazmaslik shart hisoblanadi. Jamoa barcha a'zolarining himoyalanganligi o'ta muhimdir. Har bir tarbiyalanuvchi, u qanchalik zaif, kuchsiz bo'lmasin, o'zining yakkaligi yoki himoyasizligini his etmasligi kerak. Pedagogik jamoada o'zaro munosabatlarning rasmiy va norasmiy tuzilishlari ajratilib ko'rsatiladi. Bu yerda har ikki tuzilish shaxs jamoada egallashi mumkin bo'lgan nuqtai nazardangina qarab chiqiladi.

Pedagogik jamoani boshqarish vaziyatlarini tashkil etish pedagog tomonidan sinfda jamoa faoliyatini tanlash va tashkil etishdan boshlanadi, chunki bu jamoadagi ayrim guruhlar va ularning peshqadamlari pozitsiyalarini o'zgartirish va mustahkamlashga qaratilgan birinchi qadamdir. Har bir shaxs kamolotining va butun jamoaning yuqori ishchanlik qobiliyatini rag'batlantiruvchi ruhiy muhitni tashkil etayotganda, guruh a'zolari orasidagi o'zaro munosabatlarni va unda hukmron bo'lgan qadriyatlarni tartibga solishdan boshlash kerak. Jamoa so'zi arabcha "jam'o" so'zidan olingan bo'lib, yig'ilma, omma, birgalikdagi majlis, birlashma, guruh ma'nolarini anglatadi. Pedagogik jamoaning asosiy belgilari ichki ishonch, xotirjamlikning namoyon bo'lishi, doimiy tetiklik va harakat qilishga tayyorlikdan iboratdir. Jamoa har bir a'zosida o'z qadr-qimmatini bilish tuyg'usi va o'z jamoasi bilan faxrlanish hissi bo'lishi lozim. Munosabatlarning rasmiy tuzilmasi — bu tashqaridan, jamiyat tomonidan belgilangan va ushbu jamoa faoliyat ko'rsatishi zarur bo'lgan holatlar (pozitsiyalar) tizimidir.

Norasmiy shaxslararo munosabatlar tizimida esa holatlar har bir o'quvchining o'ziga xosligi va sinfning umumiy xususiyatlari bilan belgilanadi. Boshlang'ich o'quv maskanidayoq bolalarda sinf jamoasida ularni jalb etuvchi muayyan holatni egallashga intilish kuzatiladi. Bular yetakchi, eng yaxshi o'quvchi, eng yaxshi sportchi kabi pozitsiyalar bo'lishi mumkin. Ijtimoiy holat ikki o'lchov bilan xarakterlanadi: shaxsning ijtimoiy xulq-atvori va atrofdagilarning ijtimoiy umidi.

Ijtimoiy xulq-atvor — bu real xatti-harakatlar bo'lib, ular orqali inson o'zini muayyan rolda namoyon qiladi. Ijtimoiy umidlar esa atrofdagilarning ushbu shaxs holatiga nisbatan kutishlari va munosabatlaridir. Agar inson ma'lum bir holatda o'zini namoyon qilsa, atrofdagilar uni shu holatga "mos" deb qabul qiladi. O'quvchilar yuqori sinflarga o'tgan sari o'z ijtimoiy holatlarini anglay boshlaydilar va uni o'zgartirishga ham intiladilar. Biroq mavjud ijtimoiy umidlar bunga to'sqinlik qilishi mumkin.

Ijtimoiy umidlar barqaror bo'lgani uchun o'smirlar o'z holatini mustaqil o'zgartirishda qiyinchilikka duch keladilar, bu yerda pedagog yordami muhim hisoblanadi. Pedagogik jamoa ichida peshqadam (yetakchi)ning o'zni alohida ahamiyatga ega. Bu holat guruh oldida turgan vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi bilan bog'liq bo'lib, aynan peshqadamlar jamoaning norma va qadriyatlarini shakllantiradi. Ular o'z mavqei orqali boshqalarga kuchli ta'sir ko'rsatadi va o'quvchilar ularga taqlid qiladilar. Shu sababli jamoadagi psixologik muhit ko'p jihatdan peshqadam shaxsga bog'liq bo'ladi.

Pedagogik jamoaning shaxsga ta'siri samaradorligi uning jamoadagi hissiy holati bilan belgilanadi. Bunga faoliyatdan qoniqish, o'zaro munosabatlar, rahbarlikdan mamnunlik, shaxsning himoyalanganligi va ichki xotirjamligi kiradi. Bu holat hissiy farovonlik deb ataladi va u bolaning rivojlanishi uchun muhim shart hisoblanadi. Ruhiy muhitning mohiyati shundan iboratki, jamoada shakllangan o'zaro munosabatlar qadriyatlar, axloq normalari va manfaatlar asosida alohida hissiy-ruhiy tusga ega bo'ladi. Har bir shaxsning faollik darajasi uning jamoada o'zini qanchalik hissiy jihatdan qulay his qilishiga bog'liqdir. Pedagogik jamoadagi norasmiy munosabatlarni bilmasdan turib, jamoani samarali boshqarish mumkin emas. Jamoa muhitini tahlil qilishda quyidagilarni aniqlash muhim:

- guruhlar o'rtasidagi munosabatlar holati;
- pedagogik talablarga qarshi kayfiyatdagi guruhlar mavjudligi;
- rasmiy faollar kimlar ekani;
- ularning real ta'sir kuchi (qadriyatlarni belgilashdagi roli);
- har bir o'quvchining jamoadagi mavqei.

Peshqadamlarning faoliyati jamoa uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, ichki zaruriyatga aylanadi. Pedagog jamoani boshqarishda aynan shu jarayonga tayanadi va peshqadamlarni ijobiy namuna sifatida shakllantiradi. Agar peshqadamlar to'g'ri yo'naltirilsa, jamoada qadriyatlar mustahkamlanadi, aks holda esa rasmiyatchilik kuchayib, tarbiyaviy samaradorlik pasayadi. Fanda insonning hayotdagi bilim, ko'nikma va malakalarini egallashlari bo'yicha bir qancha tushunchalar mavjud. Bu o'quv faoliyati, ta'lim o'qish va o'rganish kabi tushunchalardir. O'quv faoliyati bu avvalo shunday faoliyatki, uning natijasida avvalo o'quvchining o'zida o'zgarish yuzaga keladi. Uning mahsulot esa turli xil motivlar bilan qurilgan bo'lishi darkor. Bu motivlar bevosita faoliyat mazmuniga bog'liq bo'lishi bilan bir qatorda o'quvchi shaxsining o'sishi yoki rivojlanishi bilan ham bog'liq bo'lishi ham mumkin. Ta'lim o'qituvchi va o'quvchi hamkorligidagi o'quv faoliyati bo'lib, o'qituvchining bilim, ko'nikma va malakalarni o'quvchilarga o'rgatish jarayonidir.

O'qish va o'rganish ham o'quv faoliyatiga taalluqli tushunchalardan bo'lib, unda asosiy diqqat o'quvchiga qaratiladi. Bunda kerakli bilim, ko'nikma va malakalarni egallash uchun o'quvchi tanlagan o'quv harakatlari asosiy

hisoblanadi. O'quv faoliyati tuzilishining birinchi elementi o'quv-bilish motivlari, ya'ni shaxsiy rivojlanish motivlari hisoblanadi. O'quv faoliyatining ikkinchi ahamiyatliroq bo'lgan elementi bu o'quv topshiriqlaridir.

O'quvchilar guruhida o'zaro munosabatlarni boshqarish muhim hisoblanadi. Birinchi bor o'quv maskaniga kelgan o'quvchi hali o'zini to'liq anglashi va o'z hatti-harakatlarini aniq bilishi qiyin. Faqat o'qituvchigina o'quvchiga me'yorlar qo'yishi, ularning hatti-harakatlarini baholashi mumkin. O'z hatti-harakatlarini boshqalar bilan moslashtirishga sharoit yaratishi mumkin. O'qish jarayonida o'quvchilar o'qituvchi tomonidan qo'yiladigan yangi shartlarni qabul qiladilar va ularning qoidalariga to'la amal qilishga harakat qiladilar. O'quvchi uchun o'qituvchi uning psixologik holatini belgilab beruvchi asosiy figura hisoblanib, bu holat uning nafaqat guruhdagi, balki umuman tengdoshlari bilan bo'ladigan munosabatiga, bu munosabat esa o'z-o'zidan oilasidagi munosabatlariga ham ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, bu munosabatlar uning o'quv faoliyati muvaffaqiyatini ham belgilab beradi. O'qituvchining o'quvchilarga ta'sir ko'rsatishi va munosabatining quyidagi uslublari mavjud.

Avtoritar uslub: bu qattiqqo'llik bo'lib, bunda o'qituvchi o'quvchilarini so'zsiz o'ziga bo'ysunishlarini talab etadi. Lekin nima uchun qattiqqo'llik qilayotganini yoki o'quvchilar nima uchun o'zlarini shunday tutishlari lozimligini tushuntirib bermaydi, shuningdek, o'quvchilarni o'z hatti-harakatlarini mustaqil boshqarishga ham o'rgatmaydi. O'qituvchi dars davomida o'quvchilaridan jim o'tirishni, savollarga doimo qo'l ko'tarib, o'qituvchining ruxsati bilan javob berishni, o'qituvchining ko'rsatmalarini so'zsiz bajarishni talab etadi.

Bunday pedagoglar o'quvchilarning qiziqishlari asosida emas, balki asosan o'quv rejasi asosida dars o'tadilar. Dars davomida bahs-munozara uchun deyarli imkoniyat yaratilmaydi, asosan o'qituvchining fikri singdiriladi. O'quvchilar bilan muomala-munosabatda ham ularning individual psixologik xususiyatlari hisobga olinmaydi. Bu uslub o'qituvchini sinfdan va o'quvchidan uzoqlashtiradi. Emotsional sovuqlik guruhda intizomli o'quvchida yakkalanish, xavotirlik va himoyasizlik hissini yuzaga keltirishi mumkin. Natijada mustaqil tafakkur, ijodkorlik va hozirjavoblik rivojlanmay qoladi, o'quvchida esa doimiy xavotir va o'ziga ishonchsizlik paydo bo'ladi.

Imperativ uslubdagi o'qituvchining o'quvchilari guruhda bo'lmagan vaqtda o'zini boshqarish malakasiga ega bo'lmagani uchun intizomga mutlaqo bo'ysunmaydilar, bu esa ko'pincha tartibsizlikda namoyon bo'ladi. Bu uslub o'qituvchining kuchli irodasini ko'rsatadi, lekin unda o'quvchiga nisbatan mehr emas, balki qo'rquv ustun bo'ladi.

Demokratik uslub o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida do'stona munosabat o'rnatilishiga asoslanadi. Darsdagi intizom majburiy emas, balki muvaffaqiyatga erishish vositasi sifatida qaraladi. O'quvchilarda ijobiy emotsiya, o'ziga ishonch,

yutuqlardan quvonish va hamkorlik hissi shakllanadi. Demokratik uslub o'quvchilarni birlashtiradi, ularni o'z faoliyatiga qiziqtiradi va mustaqil harakat qilishga o'rgatadi. O'zini o'zi boshqarish va o'z xatti-harakatini nazorat qilish ko'nikmalari aynan shu uslubda shakllanadi. Liberal uslub kasbiy layoqati yetarli bo'lmagan o'qituvchilarga xos bo'lib, bunda dars jarayoni yaxshi tashkil etilmaydi. O'quvchilar o'zini erkin tutadi, lekin majburiyat hissi shakllanmaydi. Bu uslub psixologiya va pedagogika nuqtayi nazaridan noto'g'ri hisoblanadi. Imperativ uslub o'quvchi shaxsiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, demokratik uslub esa shaxs rivojini qo'llab-quvvatlovchi eng samarali yondashuv hisoblanadi. Liberal uslub esa emotsional bosimni kamaytirsa-da, rivojlantiruvchi ta'sirga ega emas. O'qituvchining munosabat uslubi o'quvchi faolligi va shaxsiy rivojiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, pedagogik jamoada shakllangan psixologik muhit ta'lim sifatini belgilovchi muhim omillardan biridir. Ijobiy psixologik muhit o'qituvchilarning kasbiy faolligini oshiradi, stressni kamaytiradi va ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga yordam beradi. Rahbarlik uslubi, jamoaviy hamkorlik va psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini rivojlantirish orqali ta'lim muassasasida sog'lom ijtimoiy-psixologik muhitni yaratish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" mavzusidagi O'zbekiston respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag'ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo'shma maslisidagi nutqi.- T.: O'zbekiston, 2016.-56 bet.
2. Mirziyoyev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: O'zbekiston, 2017.-102
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat –yengilmas kuch. T. Ma'naviyat. 2008. 176 –bet.
3. Djurayev R. Ta'lim menejmenti. T.: Voris-nashriyot. 2006 yil.
4. Safarova R. O'quvchilarda o'zaro do'stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish jarayonini tashkil etish tamoyillari va parametrlari. T.: Fan-texnologiya. 2013.
5. Turg'unov S. O'qituvchilarning kasbiy mahorat va kompetentligini rivojlantirish. T.: Sano-standart. 2012.
7. Baxranovna, M. R. (2022). International System Assessment of Reading Literacy of Primary School Pupils Pirls. International Journal of Culture and Modernity, 14, 35-38.

8. Safarova R. O'quvchilarda o'zaro do'stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirishga oid nazariy-amaliy yondoshuvlar. T.: Fan-texnologiya. 2012.

